



## OTLI BIRIKMALARDA SINTAKTIK ALOQA TURLARI( BITISHUV, MOSLASHUV, BOSHQARUV)

**Abduhakimova Ra'no Akmal qizi**

*Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*

### **Annotatsiya:**

*Mazkur maqolada so'z birikmasining sintaktik tabiati, xususan, otli birikmalarda komponentlar o'rtasidagi bog'lanish masalalari tahlil qilinadi. So'z birikmasining ma'noviy, shakliy va joylashuv omillari asosida shakllanishi yoritilib, hokim va tobe komponentlarning o'zaro munosabati ilmiy asosda izohlanadi. Bitishuv, boshqaruv va moslashuv kabi sintaktik aloqa turlari nazariy jihatdan tahlil qilinib, badiiy matnlardan olingan misollar asosida amaliy jihatdan asoslab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *so'z birikmasi, otli birikma, hokim va tobe komponent, sintaktik aloqa, bitishuv, boshqaruv, moslashuv, semantik omil, shakliy omil, joylashuv omili*

## ОТНОШЕНИЕ ГЛАВНОГО И ЗАВИСИМОГО КОМПОНЕНТОВ В ИМЕННЫХ СЛОВСОЧЕТАНИЯХ

**Абдуҳакимова Рано Акмал қизи**

*Студентка Самаркандского государственного института иностранных языков*

### **Аннотация**

*В данной статье анализируется синтаксическая природа словосочетания, в частности особенности связи компонентов в именных словосочетаниях. Освещаются семантические, формальные и позиционные факторы формирования словосочетаний, а также раскрывается взаимосвязь главного и зависимого компонентов. Типы синтаксической связи, такие как примыкание, управление и согласование, рассматриваются с теоретической точки зрения и подтверждаются примерами из художественных текстов.*

**Ключевые слова:** *словосочетание, именное словосочетание, главный и зависимый компонент, синтаксическая связь, примыкание, управление, согласование, семантический фактор, формальный фактор, позиционный фактор.*

Nutqda tushunchalarni yanada aniq va muayyan tarzda ifodalash zarurati yuzaga keladi. Shu sababli nisbatan umumiy ma'noni bildiruvchi alohida so'zga qaraganda, aniqroq mazmunni ifodalovchi so'z birikmasidan foydalanish afzal hisoblanadi.<sup>76</sup>

<sup>76</sup>

R. R. Sayfullayeva va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B. 232 b





Masalan, “o‘qimoq” va “tez o‘qimoq” birikmalarini qiyoslaylik. Birinchi holatda harakat umumiy tarzda ifodalansa, ikkinchisida “tez” komponenti orqali harakatning xususiyati aniqlashtiriladi. Natijada mazmun yanada konkretlashadi. Ko‘rinadiki, so‘z ham, so‘z birikmasi ham tushuncha ifodalaydi. Biroq alohida so‘z bildiradigan tushuncha nisbatan keng va umumiy bo‘ladi. Masalan, “o‘qimoq” fe’li harakatning turli tezlikda amalga oshishini anglatishi mumkin. So‘z birikmasida esa komponentlar o‘z mustaqilligini saqlagan holda, yanada aniq va muayyan ma’noni ifodalaydi. Masalan, “tez o‘qimoq” birikmasida harakatning tezlik belgisi ham aniq ko‘rsatilgan. Demak, so‘z o‘z ma’noviy imkoniyatini to‘liq namoyon etishi uchun boshqa mustaqil so‘z bilan bog‘lanishga ehtiyoj sezadi. Bunday bog‘lanish muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun komponentlar o‘zaro ham ma’noviy, ham grammatik jihatdan mos bo‘lishi zarur. Buni quyidagi misollar orqali ko‘rish mumkin:

olmani termoq

osmonni tishlamoq

Halim keldi

kitobni o‘qimoq

Birikmalarning birinchisida (olma) va (termoq) so‘zlari ma’noviy jihatdan muvofiq bo‘lib, biroq ularning grammatik shakli (qaratqich kelishigi) mos emas. Ikkinchi birikuv (osmonni tishlamoq)da so‘zlar grammatik shakli jihatdan mos bo‘lsa-da, ma’noviy tabiatining “beo‘xshovligi” ularning birikuv hosil qilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Uchinchi birikuvda a‘zolar ham ma’noviy, ham shakliy jihatdan muvofiq. Ular birikuvi tushuncha emas, fikr ifodalaydi. To‘rtinchi birikuv (kitobni o‘qimoq) bularning barchasidan farqlanadi va birdan ortiq mustaqil so‘zning ma’no va grammatik jihatdan hokim- tobelashuvidan tashkil topib, tushuncha ifodalashga xoslanganligi bilan xarakterlanadi. Bunda bir so‘z tobe, ikkinchisi hokim bo‘lib, tobelik va hokimlik xossasi hamda vositasiga ega. Bu – ularning ma’noviy mosligi va tobeligi (hokimligi) grammatik shakli hamda joylashuv (oldinma-keyinlik) xususiyati bilan belgilanadi. Demak, nutqiy so‘z birikmalari uchun quyidagi belgilarni ko‘rsatish mumkin: a) birdan ortiq mustaqil so‘z; b) a‘zolarining ma’noviy va grammatik jihatdan mosligi; d) tobelik; e) tushuncha ifodalash.<sup>77</sup>

So‘z birikmasi ushbu to‘rt asosiy belgisiga ko‘ra o‘ziga yaqin bo‘lgan boshqa til birliklari bilan ma’lum darajada o‘xshashlikka ega bo‘lsa-da, ayni paytda ulardan sezilarli farqlarga ham ega. Xususan, uning birdan ortiq mustaqil so‘zdan tashkil topishi uni alohida so‘zdan farqlaydi, chunki so‘z yakka holda ham ma’no ifodalay oladi. Biroq so‘z birikmasi ham so‘z singari tushuncha ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgani sababli ular o‘rtasida ma’lum o‘xshashlik kuzatiladi. Shuningdek, gap ham birdan ortiq mustaqil so‘zlarning o‘zaro ma’noviy va grammatik jihatdan bog‘lanishi asosida shakllanadi. Shu jihatdan u so‘z birikmasiga yaqin turadi. Biroq gapning asosiy farqi shundaki, u tugallangan fikrni ifodalaydi, so‘z birikmasi esa faqat tushuncha darajasida

<sup>77</sup>

Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: 2006. – B. 120.



qoladi va mustaqil fikr bildira olmaydi. Demak, soʻz birikmasi til tizimida oraliq hodisa sifatida namoyon boʻlib, u soʻz va gap bilan umumiy jihatlarga ega boʻlsa-da, oʻzining sintaktik mohiyati, vazifasi va ifoda xususiyatlari bilan ulardan farqlanadi. Shu bois soʻz birikmasining boshqa til birliklari bilan oʻxshash va farqli tomonlarini alohida-alohida tahlil qilish ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.<sup>78</sup>

Soʻz birikmasi tarkibidagi komponentlar oʻrtasidagi bogʻlanish, yaʼni tobelanish munosabati sintaksisda muhim oʻrin egallaydi. Ushbu bogʻlanish turli grammatik vositalar orqali yuzaga kelib, birikma tarkibidagi aʼzolarining oʻzaro munosabatini belgilab beradi. Soʻz birikmasida hokim va tobe komponentlar oʻzaro ierarxik aloqada boʻlib, ularning har biri maʼlum grammatik va semantik vazifani bajaradi. Tobelanish munosabati tilshunoslikda, odatda, uch asosiy turga ajratiladi: bitishuv, moslashuv va boshqaruv. Ushbu aloqa turlari komponentlar oʻrtasidagi grammatik munosabatning qanday vositalar orqali ifodalanishiga qarab farqlanadi. Ularning har biri soʻz birikmasining tuzilishi va mazmunini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. Soʻz birikmasida tobe komponentning qanday shaklda kelishi koʻpincha hokim komponentning grammatik va semantik xususiyatlariga bogʻliq boʻladi. Yaʼni hokim element tobe soʻzning shaklini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon boʻladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda komponentlar oʻrtasidagi munosabat ikki tomonlama xarakter kasb etib, har ikkala birlik bir-birining shakllanishiga taʼsir koʻrsatadi. Shuningdek, komponentlar oʻrtasidagi bogʻlanish faqat grammatik vositalar bilangina emas, balki ularning maʼnoviy uygʻunligi va joylashuv tartibi orqali ham taʼminlanadi. Bu esa soʻz birikmasining ichki sintaktik tuzilishini yanada murakkab va koʻp qirrali hodisa sifatida namoyon etadi.

**Bitishuv aloqasida** birikkan soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi, asosan, tartib va ohang vositasida yuzaga keladi. Ushbu aloqa turida maxsus morfologik koʻrsatkichlar ishtirok etmaydi, yaʼni komponentlar grammatik qoʻshimchalarsiz birikadi. Shunga qaramay, ularning oʻzaro munosabati aniq va barqaror boʻlib, bunda soʻzlarning joylashuv tartibi muhim vosita sifatida namoyon boʻladi. Bitishuv munosabatida tobe komponent hokim soʻzdan oldin keladi va bu holat qatʼiy tartibni talab qiladi. Tobe soʻz ushbu vazifada kelishi uchun shakliy jihatdan oʻzgarmaydi, balki uning leksik maʼnosi va vazifaviy xususiyati orqali tobelik ifodalanadi. Yaʼni bunday birliklar tabiatan boshqa soʻzni aniqlash yoki belgilash xususiyatiga ega boʻladi. Masalan, “qizil gul”, “oq qogʻoz” birikmalarida tobe komponentlar (qizil, oq) hokim soʻzning belgisini bildirib keladi va ular oʻzaro tartib orqali bogʻlangan. Ushbu birikmalarda hech qanday grammatik qoʻshimcha qoʻllanilmagan boʻlsa-da, maʼno jihatidan aniq va tushunarli bogʻlanish yuzaga kelgan. Baʼzi hollarda ot turkumiga mansub soʻzlar ham hech qanday qoʻshimchasiz tobe vazifada qoʻllanishi mumkin. Masalan, “oltin soat”, “tosh yoʻl” kabi birikmalarda “oltin” va “tosh” soʻzlari shaklan oʻzgarmagan holda hokim komponentni aniqlab kelmoqda. Bunday holatda ular semantik va funksional jihatdan

---

<sup>78</sup>

N. Mahmudov. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2012. – B. 59.



sifat turkumiga yaqinlashadi. Mazkur hodisa nutqiy xarakterga ega bo'lib, bu kabi qo'llanishlar doimiy grammatik xususiyat sifatida emas, balki kontekst va nutq ehtiyoji asosida yuzaga keladi. Demak, bitishuv aloqasi so'z birikmasi tarkibidagi komponentlarning tartib, ohang va ma'no uyg'unligi asosida shakllanadigan sintaktik munosabat turidir.

Quyidagi so'zlar bitishuv yo'li bilan bog'langan:

- 1) ravish + fe'l: o'z-o'zidan gapirmoq;
- 2) sifat + fe'l: yaxshi so'zlamoq;
- 3) son + ot: o'nta qalam, sakkiz daftar;
- 4) ot + ot: kumush qoshiq, chang yo'l;
- 5) olmosh + ot: hamma odam, qanday kitob.

Ayrim manbalarda tobe so'z vazifasida ravishdosh (shoshilib gapirdi), sifatdosh (o'qigan bola) yuzaga chiqqan birikuv ham bitishuvli birikma sifatida qaraladi. Aslida, bu holatda ravishdosh qo'shimchasi -ib fe'lni boshqa fe'l bilan bog'lash vazifasini bajaradi (shoshilib gapirdi), sifatdosh shakli -gan esa fe'lni ot bilan aloqaga kiritadi (o'qigan bola). Shu bois ushbu shakllar oddiy tartib orqali emas, balki muayyan grammatik vositalar yordamida bog'lanishni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, ular morfologiyada lug'aviy-sintaktik shakllar sifatida talqin etilishi ham bunday birikmalarni bitishuv asosida emas, balki boshqaruv munosabati orqali hosil bo'lgan birliklar sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. Bitishuv aloqasida komponentlar o'rtasidagi hokim – tobelik munosabati asosan ularning joylashuv tartibi orqali belgilanadi. Bunda odatda tobe komponent hokim so'zdan oldin keladi, ya'ni "tobe a'zo + hokim a'zo" shakli kuzatiladi. Shuningdek, bunday birikmalarda komponentlar orasiga boshqa so'z kiritish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Masalan, "kumush qoshiq" birikmasining tarkibini buzib, uni "kumush o'nta qoshiq" tarzida o'zgartirish mumkin emas. Ayrim holatlarda bitishuv aloqasida tartibning ahamiyati sustlashgandek tuyulishi mumkin. Masalan, "Majlis bo'ladi" va "Majlis kechqurun bo'ladi" kabi birliklarda komponentlar orasiga boshqa so'z kiritilgani kuzatiladi. Biroq bu holatda "majlis" so'zi fe'l bilan bitishuv asosida emas, balki bosh kelishik shaklida bog'langanligini hisobga olish zarur.

Demak, bitishuv aloqasida so'zlar o'rtasidagi munosabatni belgilashda tartib va ohang muhim omil hisoblanadi. Bunda tobelik aloqasi maxsus grammatik ko'rsatkichlar orqali emas, balki komponentlarning joylashuvi, grammatik xususiyati hamda ma'noviy uyg'unligi asosida anglashiladi. Shuningdek, kelishik affikslari o'z dastlabki grammatik ma'nosini yo'qotgan ayrim birikmalarni ham bitishuv aloqasi doirasida ko'rib chiqish mumkin. Masalan, "tezda kelmoq", "o'z-o'zidan raqsga tushib ketmoq", "birdan gapirmoq" kabi birikmalarda kelishik qo'shimchalari mustaqil grammatik vosita sifatida emas, balki so'z tarkibiga singib ketgan holda qo'llanadi. Bunday holatda ular o'z tizimiy vazifasidan uzoqlashib, lug'aviy birlikning tarkibiy



qismiga aylanadi. Natijada bu soʻzlar ravishlashgan shaklda qoʻllanib, bitishuv aloqasiga yaqinlashadi.

Misollar:

1. “Undan vetchina va qahva hidi kelar edi. Uning orqasida oriq, choʻziq yuzli xotini, qisiq koʻzli novcha gimnazist oʻgʻli turibdi”<sup>79</sup> (Anton Chexov, “Semiz va oriq”, 3-bet) gapida bir nechta otli birikmalar bitishuv aloqasi asosida shakllangan. Xususan, “qisiq koʻzli gimnazist oʻgʻli” birikmasida “oʻgʻli” hokim komponent boʻlib, “qisiq koʻzli gimnazist” esa tobe komponent sifatida uning belgi va xususiyatlarini aniqlab kelmoqda. Shuningdek, “oriq, choʻziq yuzli xotini” birikmasida ham “xotini” hokim komponent boʻlib, unga bogʻlangan sifatlovchi birliklar tartib asosida birikib, bitishuv aloqasini yuzaga keltirgan.

2. “Shoh Muslim dunyodagi eng dono, eng odil podsholardan edi. Uning mamlakati goʻzal, shaharlari obod, xalqi tinch, farovon turmush kechirardi”<sup>80</sup> (Oʻlmas Umarbekov, “Odam boʻlish qiyin”, 2-bet) gapida bitishuv aloqasi asosida shakllangan otli birikmalar kuzatiladi. Xususan, “goʻzal mamlakat”, “obod shahar”, “tinch xalq” kabi birikmalarda hokim komponentlar (mamlakat, shahar, xalq) ot bilan ifodalangan boʻlib, tobe komponentlar (goʻzal, obod, tinch) ularning belgisini aniqlab kelmoqda. Ushbu birikmalarda komponentlar oʻzaro maxsus grammatik koʻrsatkichsiz, asosan, tartib va maʼno uygʻunligi orqali bogʻlangan.

**Boshqaruv aloqasi** soʻz birikmasi tarkibida bir tomonlama shakllanadigan sintaktik munosabat sifatida namoyon boʻladi. Bunday birikmalarda faqat tobe komponent maxsus grammatik koʻrsatkich, yaʼni tobelovchi qoʻshimcha orqali hokim soʻzga bogʻlanadi. Shu sababli bunday bogʻlanish turi boshqaruv asosida yuzaga kelgan deb hisoblanadi. Boshqaruv aloqasida hokim komponent tobe soʻzning qaysi grammatik shaklda kelishini belgilaydi. Yaʼni tobe elementning shakli hokim soʻzning grammatik va semantik xususiyatlariga toʻliq bogʻliq boʻladi. Masalan, “kitobni oʻqimoq” birikmasida tobe komponentning tushum kelishigida kelishi “oʻqimoq” feʼlining oʻtimli ekanligi bilan izohlanadi. Agar ushbu feʼl oʻtimsiz shaklga oʻzgartirilsa, tobe komponentdagi kelishik shakli ham oʻzgaradi yoki butunlay yoʻqoladi. Masalan, “kitobni oʻqimoq” birikmasi “kitob oʻqildi” shakliga oʻtganda, tushum kelishigi qoʻshimchasi qoʻllanilmaydi. Bu holat boshqaruv aloqasida hokim komponentning yetakchi rolini yaqqol koʻrsatadi. Boshqaruv aloqasida tobe komponentni turli soʻz turkumlariga mansub birliklar boshqarishi mumkin. Yaʼni hokim vazifasida faqat feʼl emas, balki boshqa turkumlarga oid soʻzlar ham ishtirok etadi. Masalan, “uyga bormoq” birikmasida feʼl boshqaruvni amalga oshirsa, “mendan katta” birikmasida sifat, “tovushdan tez” da ravish, “oʻqishda birinchi” da son, “aytgan bola” birikmasida esa ot boshqaruvchi vazifasida namoyon boʻladi. Boshqaruv aloqasi uni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalarga koʻra bir necha turlarga ajratiladi. Jumladan, kelishik

<sup>79</sup> Anton Chexov. Semiz va oriq. – Toshkent: 2024. – B. 3.

<sup>80</sup> Oʻlmas Umarbekov. Odam boʻlish qiyin. – Toshkent: 2024. – B. 2.



qo‘shimchalari orqali amalga oshadigan kelishikli boshqaruv, ko‘makchilar yordamida yuzaga keladigan ko‘makchili boshqaruv, shuningdek ravishdosh va sifatdosh shakllari orqali ifodalanadigan ravishdoshli hamda sifatdoshli boshqaruv turlari farqlanadi.

**Moslashuv** so‘z birikmasining ikki tomonlama grammatik shakllanishiga asoslangan bog‘lanish turidir. Bunda tobe komponent hokim so‘zga mos ravishda egalik qo‘shimchasini qabul qiladi, hokim komponent esa tobe so‘zga muvofiq qaratqich yoki bosh kelishik shaklida qo‘llanadi. Masalan, “ukamning daftari”, “sizning uyingiz”, “Fuzuliy g‘azali” kabi birikmalarda komponentlar o‘zaro moslashgan holda bog‘langan. Moslashuv” atamasi komponentlarning har ikkisi ham bir-birini taqozo etuvchi grammatik shaklga ega ekanligini anglatadi. Ya’ni bu aloqada bog‘lanish faqat bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama xarakter kasb etadi. Moslashuv munosabatida tobe komponent qaratuvchi, hokim komponent esa qaralmish sifatida qaraladi.

Moslashuv aloqasida ayrim hollarda tobe komponent nol shaklda qo‘llanadi, masalan, “Fuzuliy g‘azali” birikmasida qaratuvchi ko‘rsatkich ifodalanmagan. Shunga o‘xshash tarzda, hokim komponent ham ba’zi holatlarda egalik qo‘shimchasiz kelishi mumkin. Masalan, “sizning uyingiz” – “sizning uy”, “bizning kitobimiz” – “bizning kitob” shakllari shunday hodisani ko‘rsatadi. Bu holat “siz”, “biz” olmoshlari bilan ularga mos keluvchi -ngiz, -miz egalik qo‘shimchalari o‘rtasidagi tarixiy-genetik bog‘lanish bilan izohlanadi. Shu sababli ayrim birikmalarda egalik ko‘rsatkichi tushib qolishi mumkin. Biroq bunday hodisa barcha birliklarga xos emas. Masalan, “ularning kitobi” birikmasini “ularning kitob” shaklida qo‘llash mumkin emas, chunki bu yerda grammatik moslashuv to‘liq saqlanishi talab etiladi.

So‘z birikmasida bog‘lanish omili uning ichki tuzilishini va komponentlar o‘rtasidagi munosabatni anglashda muhim ahamiyatga ega. So‘z birikmasining tuzilishi hamda uni tashkil etuvchi a’zolar o‘rtasidagi aloqani tahlil qilish orqali birikishning ichki qonuniyatlari aniqlanadi.<sup>81</sup> So‘z birikmasida bog‘lanish faqat bir komponentning faolligi bilan emas, balki har ikki komponentning o‘zaro ma’noviy, grammatik va joylashuv jihatdan moslashuvi asosida yuzaga keladi. Bunda tobe komponentning birikishga bo‘lgan imkoniyati ro‘yobga chiqishga intilsa, hokim komponentning biriktirish talabi esa shu imkoniyat orqali qondiriladi. Shu sababli so‘z birikmasidagi bog‘lanishni faqat bir tomonlama yoki ikki tomonlama aloqaga ajratish to‘liq ilmiy asosga ega emas. Chunki ayrim hollarda bir komponentning grammatik shakllanishi yetakchi bo‘lsa (masalan, “maktabga bormoq”), boshqa hollarda esa har ikki komponent o‘zaro moslashgan holda shakllanadi (masalan, “maktabning bog‘i”). Agar sintaktik aloqani faqat shu asosda tasniflasak, bitishuv asosida yuzaga kelgan

---

<sup>81</sup> R. R. Sayfullayeva, B. R. Mengliyev, G. H. Boqiyeva, M. M. Qurbonova, Z. Q. Yunusova, M. Q. Abuzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010. – B. 248.



birikmalarni (masalan, “keng dala”) aloqasiz birlik sifatida baholashga to‘g‘ri keladi. Bu esa ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Demak, so‘z birikmasidagi aloqaning turli ko‘rinishlari, asosan, ularni yuzaga keltiruvchi bog‘lovchi vositalarning xususiyatiga qarab belgilanadi.

So‘z birikmasida aloqa har doim ikki tomonlama xarakterga ega bo‘ladi. Ya‘ni bunda tobe komponentning birikish imkoniyati hamda hokim komponentning biriktirish talabi o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ushbu o‘zaro munosabat komponentlarning birikish va biriktirish qobiliyatiga asoslanadi. “So‘z birikmasi tarkibidagi a‘zolar o‘rtasidagi bog‘lanish har bir so‘zda mujassam bo‘lgan **ma’noviy (M)**, **shakliy (Sh)** va **joylashuv (J)** omillarining o‘zaro mosligi orqali yuzaga keladi. Ya‘ni komponentlar faqat grammatik jihatdan emas, balki semantik va tartib jihatidan ham bir-biriga mos kelishi zarur”<sup>82</sup>. Masalan, “kitobni o‘qimoq” birikmasida “kitobni” shakli hokim komponent bilan bog‘lanish imkoniyatini ta‘minlovchi ma’noviy, shakliy va joylashuv omillariga ega. Xuddi shuningdek, “o‘qimoq” shakli ham tobe komponent bilan bog‘lanishni yuzaga keltiruvchi ana shunday omillar asosida shakllangan. “Xatni yozmoq” birikmasida tobe komponent (“xatni”)ning hokim komponent (“yozmoq”) bilan bog‘lanishi uning shakliy ko‘rsatkichi (-ni), ma‘nosi hamda qisman joylashuv tartibi, ya‘ni oldin kelishi orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, hokim komponentning tobe so‘z bilan aloqasi ham uning ma‘nosi, grammatik shakli va joylashuvi (keyin kelishi) asosida yuzaga chiqadi. Umuman olganda, so‘z tarkibida ma‘noviy, shakliy va joylashuv omillari o‘zaro yaxlit holda mavjud bo‘ladi. Biroq birikish jarayonida ushbu omillardan biri yetakchi mavqega ega bo‘lib, boshqalari nisbatan ikkinchi darajaga tushadi. Masalan, “xatni yozmoq” birikmasida tobe komponentda shakliy omil (-ni qo‘shimchasi) tobelikni ifodalovchi asosiy vosita sifatida ustunlik qiladi, hokim komponentda esa ma‘noviy omil yetakchi rol o‘ynaydi.

**Ma’noviy omil** deganda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi ularning lug‘aviy ma‘nosi hamda qaysi so‘z turkumiga mansubligi tushuniladi. Lug‘aviy ma‘no, odatda, aniq bo‘ladi, ammo so‘zlarning grammatik-semantik xususiyatlariga ham qisqacha to‘xtalish zarur. So‘zning muayyan turkumga mansubligi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, mustaqil so‘z turkumlari doirasida predmet (ot), belgi (sifat), miqdor (son), harakat (fe‘l), holat (ravish), tasviriylik (taqlid so‘zlar), ishoraviylik (olmoshlar) kabi umumiy ma‘nolarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ma‘nolar so‘z turkumining o‘ziga xosligi hamda uning ichki guruhlari bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, “tosh ko‘prik” birikmasida “tosh” so‘zining ot turkumiga mansubligi va modda-ashyo nomini bildirishi, “ko‘prik” so‘zining esa ma‘lum bir harakat natijasida yuzaga kelgan predmetni ifodalashi ma‘noviy omilni yuzaga keltiradi. Xuddi shuningdek, “so‘rida yotmoq” birikmasida “so‘ri” so‘zining joy nomini anglatishi,

<sup>82</sup> R. R. Sayfullayeva, B. R. Mengliyev, G. H. Boqiyeva, M. M. Qurbonova, Z. Q. Yunusova, M. Q. Abuzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010. – B. 251



“yotmoq” fe’lining esa o‘timsizligi ham komponentlar o‘rtasidagi ma’noviy moslikni ta’minlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

**Shakliy omil** deganda so‘zlarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiluvchi sintaktik-morfologik vositalar tushuniladi. Bu omil so‘z birikmasidagi komponentlar o‘rtasidagi grammatik munosabatni ifodalovchi shakllar orqali namoyon bo‘ladi. Morfologik ko‘rsatkichlar esa birikma tarkibida qaysi komponentni shakllantirishiga qarab ikki turga ajratiladi. Birinchisi – tobe komponentga xos shakllar bo‘lib, ular kelishik qo‘shimchalari, sifatdosh va ravishdosh ko‘rsatkichlari hamda ko‘makchilar orqali ifodalanadi. Ikkinchisi esa hokim komponentga xos shakllar bo‘lib, ular egalik, nisbat va kesimlik ko‘rsatkichlari orqali yuzaga chiqadi.

**Joylashuv omili** so‘zlarning o‘zaro tartib asosida joylashuvi hamda birikma tarkibida qanchalik jipslashganligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu omil ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: erkin joylashuv va jipslashuv. O‘zbek tilining me’yoriy nutqida so‘zlarning tartibi qat’iy bo‘lib, odatda tobe komponent hokim so‘zdan oldin, hokim komponent esa undan keyin keladi. Erkin joylashuv deganda so‘z birikmasi tarkibidagi komponentlarni bir-biridan ajratish, ularning orasiga boshqa birliklarni kiritish yoki joylashuv tartibini o‘zgartirish imkoniyati tushuniladi. Masalan, “kecha kelmoq”, “kitobni o‘qimoq”, “shahrimizning ko‘chalari” kabi birikmalarda komponentlar orasiga boshqa so‘zlarni kiritish yoki ularni vaqtincha ajratish mumkin: “kecha uyga keldi”, “kitobni tez o‘qidi”, “shahrimizning keng ko‘chalari”. Hatto ayrim hollarda tartibni o‘zgartirish ham mumkin bo‘ladi. Jipslashuv esa komponentlarning o‘zaro mustahkam bog‘langanligini anglatadi. Bunday birikmalarda tobe va hokim a‘zolari ajratish yoki ularning o‘rnini almashtirish mumkin emas, chunki bu holat birikmaning ma’nosini buzadi. Masalan, “tosh ko‘prik”, “oltin uzuk”, “Navoiy romani”, “kitob o‘qimoq” kabi birikmalarda komponentlarning tartibi o‘zgarsa, birikmaning mohiyati ham o‘zgaradi. Demak, bu turdagi birikmalarda joylashuv omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Har qanday so‘z birikmasida so‘zning mavjud imkoniyati yuzaga chiqadi. Bunda har bir a‘zodagi mazkur (**M, J, Sh**) omillar o‘zaro va boshqa a‘zodagi shunday omillar bilan muvofiqlashadi. So‘zdagi bir omilning kuchayishi boshqa omilning kuchsizlanishi evaziga sodir bo‘ladi. Buni uchburchak burchaklariga qiyoslash mumkin. Uchburchak burchaklarining yig‘indisi 180 gradusga teng. Bir burchak kattalashsa, buning hisobiga boshqalari kichrayadi. Lekin ularning umumiy yig‘indisi 180 gradusga teng bo‘lib turaveradi. Xuddi shuningdek, tobe yoki hokim so‘zdagi bir omilning kuchayishi boshqa omillarning kuchsizlanishi hisobiga yuz beradi. Chunki bir omilning yetakchilik qilishi boshqalarning to‘la voqelanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Masalan, “uyning egasi” birikmasida birikuv omillari quyidagicha: **ShMJ + ShMJ**. Chunki har ikki a‘zo ham – tobe a‘zo tobe ga xos, hokim a‘zo esa hokimga xos grammatik shaklga ega. Ularning hokim va tobeligini ana shu shakllar ko‘rsatib turadi. Shuning uchun har ikkala a‘zoda ham shakliy omil ustuvor. Birikma a‘zolarini bir-biridan “uzish” (uyning asl egasi),

teskari joylashtirish (egasi uyning) birikmaning oldingi mohiyatiga ta'sir qilmaydi. Bu esa joylashuv omilining o'ta kuchsizligidan dalolat beradi.

Ma'noviy omil shakliy va joylashuv omillari o'rtasida oraliq mavqega ega bo'ladi. Masalan, "shoshilib gapirmoq" birikmasida komponentlarning birikuv omillari quyidagicha ifodalanadi: ShMJ – MShJ. Birinchi komponentda shakliy omilning ustun kelishi uning ravishdosh shaklida ekanligi bilan bog'liq. Aynan ravishdosh shakli "shoshilib" so'zining tobe vazifasini ta'minlaydi. Har ikkala komponentda joylashuv omilining oxirgi o'ringa tushishi esa ular o'rtasida erkin joylashuv imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi. Ikkinchi komponentda ("gapirmoq") ma'noviy omilning yetakchi bo'lishi uning hokimlikni ifodalovchi maxsus grammatik ko'rsatkichga ega emasligi hamda joylashuv omilining nisbatan kuchsizligi bilan bog'liq. "Mart oyi" birikmasida esa komponentlarning birikuv omillari quyidagicha namoyon bo'ladi: **JMSh + ShMJ.**

Shuni ta'kidlash joizki, so'z birikmasi tarkibida ma'noviy omil hech qachon ikkinchi darajali yoki so'nggi o'ringa tushmaydi. Chunki so'z birikmasining yuzaga kelishi uchun eng asosiy shart – komponentlarning ma'noviy jihatdan o'zaro mos kelishidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R. R. Sayfullayeva va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
2. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2006.
3. N. Mahmudov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2012.
4. Anton Chexov. Semiz va oriq. – Toshkent: 2024.
5. O'lmas Umarbekov. Odam bo'lish qiyin. – Toshkent: 2024.
6. R. R. Sayfullayeva, B. R. Mengliyev, G. H. Boqiyeva, M. M. Qurbonova, Z. Q.

Y

u

n

u

s

o

v

a

,

M

.

Q

.

A

b

u